

SHIRINMIYA (QIZILMIYA) O‘SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI

Bafoyev Bekzod Bo‘ron o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Bu maqolada biz shirinmiya (qizilmiya) o‘simligining biologiyasi, kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari, sanoat hamda inson hayotidagi ahamiyati haqida tanishib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Qizilmiya, “mo‘jizakor o‘simlik”, dorivor o‘simlik, ildizpoya, vegetatsiya, glyukoza, gigrofit, polikarp o‘t.

ANNOTATION

In this article, we will learn about the biology, chemical composition, medicinal properties, industry and importance of the licorice plant in human life.

Keywords: Licorice, “miracle plant”, medicinal plant, rhizome, vegetation, glucose, hygrophyte, polycarp herb.

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы узнаем о биологии, химическом составе, лечебных свойствах, промышленности и значении растения солодки в жизни человека.

Ключевые слова: Солодка, “чудо-растение”, лекарственное растение, корневище, растительность, глюкоза, гигрофит, трава многоплодника.

Qizilmiya — dukkakdoshlarga mansub ko‘p yillik ildizpoyali begona o‘t. Poyasi sershox, dag‘al, bo‘yi 40-150 sm, tik o‘sadi. Barglari murakkab, toq patsimon,

uzunchoq. Gullari binafsha rang, shoda to'pgulga yig'ilgan. Mevasi cho'zinchoq dukkak. Aprel - iyunda gullab mevalaydi. Urug'i va vegetativ usulda ildizpoyalaridan ko'payadi. Ildiz sistemasi kuchli rivojlanadi, 3 m chuqurlikkacha kirib boradi. Ildizpoyalaridan yer usti novdalari hosil bo'ladi, urug'i qattiq qobiqli, 30-35° C haroratda ko'karadi. O'rta Osiyoning hamma rayonlarida, jumladan, Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. Hamma chopiqtalab ekinlar, ayniqsa, beda va donli ekinlar orasida uchraydi, sug'orish kanallari bo'ylari, ariq yoqalari, bog' va uzumzorlarda o'sadi.

Qizilmiyaga "mo'jizakor o'simlik" deya ta'rif beriladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki undan 110 turdan ortiq dori vositalari olinishi bilan birga, sanoatning 20 yo'nalishida foydalaniladi. Bunday xususiyat boshqa o'simliklarda kamdan-kam uchraydi. Respublikamizda mazkur o'simlikning silliq qizilmiya turi keng tarqalgan bo'lib, u tabiiy holda o'sadi.

Qizilmiya ildizlaridan tayyorlangan quruq va quyuyq ekstraktlar shamollash, sil hamda o'pka, jigar, nafas yo'llari va yurak-qon tomirlari kasallanganda, modda almashinuvini me'yoriga keltirishda, bo'g'ma, onkologik, ovqatdan zaharlanish, oshqozon, me'da hamda o'n ikki barmoqli ichak yarasida, teri kuyishi, shuningdek, boshqa xastaliklarda tavsiya etiladi.

Oziq-ovqat sanoatida qizilmiya ildizidan kaloriyasiz ichimliklar, qandolatchilik va non mahsulotlari, murabbo, shinni, konserva, ozuqa konsentratlari, saqich, tish pastasi hamda boshqalarni tayyorlashda foydalaniladi. Yengil sanoatda rangli bo'yoqlar olinsa, metallurgiya sanoatida metallarni gidrolizlashda, kimyo sanoatida siyoh tayyorlashda, qog'ozlarga rang berishda qo'llaniladi. Uning chiqindisidan esa qog'ozli termoizolyatsiya plitasi, qog'oz singari mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. Shu bois bugungi kunda ushbu o'simlikka AQSH, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Yaponiya, Germaniya, Vengriya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa ko'pgina davlatlarda talab yuqori.

Qizilmiya qishloq xo'jaligida ham juda foydali. Masalan, undan ajratib olingan faol moddaning 1 milligrammini 1 litr suvga aralashtirib, kartoshkaga ishlov berilsa,

kurtaklarning uygʻonish koʻrsatkichi 28 foiz oshadi, gʻunchalash va gullash fazalari tezlashadi, natijada hosildorlik 17 foizga ortadi.

Kimyoviy tarkibi. Shirinmiyaning ildiz qismidan juda koʻplab biologik faol moddalar ajratib olingan boʻlib, xomashyo quruq massasining 40-50 % miqdorini tashkil etadi. Ularning orasida miqdor jihatidan koʻpligi va dorivor xususiyatlari hamda qoʻllanilish sohalari kengligi boʻyicha glitsirrizin alohida oʻrin tutadi. Oʻsimlik tarkibida triterpen, saponin, flavonoidlar, polisaxaridlar, pektin, aminokislotalar, mineral tuzlar, oshlovchi moddalar, alkaloidlar kabi qator moddalar mavjud. Ildizida asosan glitsirrizin, flavanoidlar, steroidlar, asparagin, pigmentlar hamda qand uchraydi. Yer ustki qismlaridan kumarin, flavanoidlar, oshlovchi moddalar, pigmentlar, askorbin kislota, efir moyi mavjudligi aniqlangan. Shirinmiya oʻsimligining yer ustki qismi oʻz tarkibida 8% miqdorda saponin saqlaydi. Shuningdek, oʻsimlik bargida 17 % oqsil, 4,88 % yogʻ, 21,12 % kletchatka va 6,78 % miqdorda kul moddasi mavjud. Adabiyotlarda Oʻrta Osiyo va Kavkaz respublikalarida shirinmiya ildizidan olingan boʻyoqlar kigiz va jun matolarini boʻyashda ishlatilishi, shuningdek, poyasidan arqon tayyorlash dagʻal tola olinishi aytilgan. Shirinmiya ildizini maydalab, xlorid kislota hamda suv bilan aralashtirilganda koʻpirishi tufayli oʻt oʻchirishda ham qoʻllaniladi.

Xalq tabobatida qoʻllanilishi. Abu Ali ibn Sino shirinmiya ildizidan oʻpka, meʼda yalligʻlanishi, buyrak, qovuq, isitma kabi kasalliklarni davolashda foydalangan. Shirinmiya ildizidan tayyorlangan qaynatma va damlamalar, ildiz kukuni surgı vositasi hamda terlatuvchi sifatida, yoʻtal, nafas qisishi hamda koʻkrak ogʻriqlarida uzoq yillardan beri qoʻllanib kelinadi. Oʻrta Osiyo xalq tabobatida ildizdan tayyorlangan qaynatma tomoq quriganda, meʼda va oʻn ikki barmoq ichakning yara kasalliklari hamda gemaroyda qoʻllaniladi. Ildiz qaynatmasi yuqori nafas yoʻllarining shamollash kasalliklari va yoʻtalda balgʻam koʻchiruvchi hamda siydik haydovchi sifatida qoʻllaniladi.

Tibbiyotda shirinmiya oʻsimligining quyuk hamda suyuq ekstrakt, sharbat parashog shakllardagi dorivor preparatlari asosan nafas yoʻllari xastaliklarini

davolashda balg'am ko'chiruvchi o'rab oluvchi sifatida, shuningdek surgi dori sifatida qo'llaniladi. Undan tashqari, o'simlikdan tayyorlangan preparatlar siydik haydovchi, ich yumshatuvchi choy yig'malar tarkibiga kiritiladi.

Shirinmiya o'simligi qadimdan ko'plab olimlarni o'ziga jalb qilib kelgan va hozirgi kunda ham ko'plab olimlar hamda yosh tadqiqotchilar jumladan magistrlar, doktorantlar va xatto tadbirkor, dehqonlar ham ushbu noyob o'simlikka katta qiziqish bilan yondashmoqda. Qadimgi grek olimlari Gippokrat va Feofrast shirinmiya ildiziga yuqori baxo berib, nafas yo'llari kasalliklarida ishlatishni tavsiya etgan. Ushbu o'simlik Abu Ali ibn Sino asarlarida ham uchraydi.

XULOSA

Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlaridan foydalana boshlaganidan buyon dorivor o'tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3-4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qadimgi Misr mamlakatlarida shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanib davolash o'zining qadimgi an'anasiga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning "Al-qonun" asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Hozirgi vaqtda dorivor o'simliklarning turi ko'payib, xalq tabobati shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Bular orasida maqolada keltirilgan shirinmiya o'simligi ham alohida o'rin tutadi.

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dorining ta'sirchanlik quvvati hamda sifati yuqori bo'lish davri ularning gullash hamda urug'lash davrining boshlanishi vaqtiga to'g'ri keladi. Dorivor moddalar ba'zi o'simliklarning kurtagi, bargi yoki poyasida, ba'zi o'simliklarning guli yoki mevasida, ba'zilarida ildizi yoki po'stlog'ida to'planadi. Shuning uchun o'simliklarning asosan biologik aktiv moddalari ko'p bo'lgan qismi yig'ib olinadi. O'simliklarning ildizi, ildizpoyasi, piyozi va tunganagi, odatda, o'simlik

uyquga kirgan davrda — kech kuzda yoki o‘simlik uyg‘onmasdan oldin — erta bahorda tayyorlanadi. O‘simlikning meva va urug‘lari pishib yetilganda yig‘iladi, chunki ular bu paytda dori moddalariga boy bo‘ladi. Yangi yig‘ib olingan dorivor o‘simlik mahsuloti tarkibida (yer ustki a‘zolarida 85% gacha, ildizida 45% gacha) nam bo‘ladi. Bu nam yo‘qotilmasa (quritish yo‘li bilan), o‘simlik chirib, dori moddalari parchalanib, yaroqsiz bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Qizilmiya” O‘zME. Q-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Xolmatov H.X., Ahmedov O.A. Farmakognoziya. T.: 1995
3. Oljaboyeva N. ||XALQ TABOBATI xazinasidan javohirlar. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2009 1135 bet.
4. Murdaxayev Y.M. —O‘zbekistonda vatan topgan dorivor o‘simliklar|| Toshkent, 1990
5. To‘xtayev B.YE. || O‘zbekistonning sho‘rlangan yerlarida introduksiya qilingan dorivor o‘simliklar ||. b.f.d. uchun doktorlik dissertatsiyasi, 2009 y.